



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2025
1/9**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

SHIRINOVA R.X. – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Suleymanov R.X. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Musayev N.U. – t.f.d., prof.

Urakov D.J. – t.f.d., prof.

Xolikulov A.B. – t.f.d., prof.

Yermetov A.A. – t.f.d., prof.

Zuyev A.S. – t.f.d., prof.

Jesus Fuensanta. – t.f.d., prof

Muxamedova D.G. – psix.f.d., prof.

Karamyan M.X. – psix.f.d., prof.

Rasulov A.I. – psix.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Sobirova U.F. – sots.f.d., prof.

Xudaykulov H.J. – ped.fan.d., prof.

Miroslav Ballay – PhD, prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sadullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Abdurahmonova N.Z. – fil.f.d., prof.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., dots.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2025

Raximova M. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalasiga psixologik yondashuv	154
Raxmanov A. Tibbiy ta'lim muassasalari talabalarida xalq tabobatini integratsiyalash orqali tibbiy madaniyatni rivojlantirish modeli	157
Sabirov U. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sanoat tarmoqlarida vositachilik munosabatlarining transformatsiyasi	161
Salimova S. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy-metodik kompetensiyalarini baholash vositalarini loyihalash va validatsiyalash	167
Saribayeva N. Zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrini baholash va tahlil qilish usullari	170
Solayev O. Turli emotsional holatlarda vaqtni idrok qilishning psixologik xususiyatlari	174
Sotivoldiyeva S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda miyaning faol zonalariga yo'naltirilgan neyropedagogik topshiriqlarning didaktik asoslari	177
Sultonov Q. "Oila-talaba-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmining nazariy asoslari	180
Талипова М. Метакогнитивная осознанность как фактор развития академического контроля студентов ...	183
Tashpulatova N. Raqamli texnologiyalardan foydalanish modellari	186
Toshxodjayev M. Harbiy xizmatchilarda kasbiy stress kelib chiqishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	189
To'rayeva A. Oilaviy muhitning sog'lomlashuvida mehnatga oqilona munosabatni shakllantirishning o'rni	192
Umaraliyeva F. Oliy ta'limda aralash ta'lim tizimiga elektron ta'lim resurslarini samarali integratsiya qilish omillari	195
O'rinova N. STEAM ta'limi asosida maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik asoslari	199
Urinova U. The impact of self-confidence on the development of public speaking competence	203
Usmanov M. Davrni idrok etishning professional faoliyatdagi ahamiyati	206
Xalmirzayev M. Neyropedagogik texnologiyalar yordamida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	210
Xolyigitova N. Ta'lim tizimida kasbiy karyera shakllanishining va ijtimoiy-psixologik muammolari	213
Xudaynazarov A. O'zbekiston yoshlarini davlat boshqaruvida ishtiroki: sotsiologik tahlil	217
Xo'jamberdiyeva J. Atom fizikasi fanidan elektron orbital bulutlari shakl o'zgarishining to'liq funksiyaga bog'liqligini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari	220
Hasanov M. Abu Nasr Forobiy ta'limotida davlat va jamiyat boshqaruvini insonparvarlashtirish tamoyillari	223
Shamshimetov T. Oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishning pedagogik mexanizmlari	227
Shermatova U. Differensial adabiy ta'limni axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish asoslari	230
Shernazarov Sh. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy islohotlarning rivojlanishi va kasbiy professionalashuv	234
Filologiya	
Абдуазизова Д. Невербальные средства в контексте межкультурного взаимодействия	238
Bekmurotova Sh. O'zbek tilida juft so'zlarning o'rganilishi	241
Давлатова Ш. Понятие «Языковая картина мира» и его место в теории и практике перевода(на примере произведений А.П.Чехова)	244
Jumayeva U. "Gender representation in proverbs across cultures: a comparative study of english and uzbek proverbs"	248
Зиганшина А. Эволюция рассказа в системе малой прозы: от классической модели к постмодернистской вариативности	253
Ismoilova M. Sentiment and pragmatic analysis of time expressions in english and uzbek: a corpus-based linguistic-cultural approach	256
Karimova B. "Tib qonunlari" asari bayonida tibbiy terminlar diskurs tahlil va ularning zamonaviy shakllari (Kardiologiya sohasi misolida)	259
Karimova F. Diminutives in English lullabies	262
Qayumberdiyeva N. Zamonaviy she'riyatda obrazlashuv	265
Madieva M. Syntactic features in the translation of brand names	268
Madiyorova V. Tarjimada gender xoslangan birliklar tasviri xususida	271
Narxodjayeva X. Til va inson omili: pragmatik yondashuvning mohiyati	274
Ortiqova M. Qiyosiy adabiyotshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari	277
Sotvoldiyeva M. XX–XXI asr Sharq adabiyotida ota obrazi	281
Suyunova M. The linguistic-cultural study of speech acts to develop national language corpora	284
Umurova F. Internet muloqotida xushmuomalalikni lisoniy va nolisoniy ifodalanishi	288
Xamidova M. Badiiy matnning pragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlari (O'limas Umarbekov asarlari tahlili misolida)	291
Xoljo'rayeva M. O'zbekcha-inglizcha ijtimoiy-siyosiy terminlarda sinonimiya va antonimiya	294
Xolmuminova N. Amiriy she'riyatida an'anaviy obrazlar	297
Xudayarova S. Ko'zi ojizlarda so'z ma'nosining o'zlashtirilishi: psixolingvistik nazariyalar asosida tahlil	299
Yuldasheva G. "Or-nomus" konsepti orqali tilning ijtimoiy va axloqiy funksiyasini tadqiq etish	302
Yusupova Sh. Milton verbal ta'sir modelining suggestive xususiyatlari	305
Yakubov S. Akademik yozuv va nutq madaniyati fanlarini oliy o'quv yurtlarida o'qitishning dolzarb masalalari	308



УДК:37.091.3:004:82

Umida SHERMATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail:abdulazizmannopov07@gmail.com

ToshDO'TAU professori, p.f.d S.Qambarova taqrizi asosida

FUNDAMENTALS OF ORGANIZING DIFFERENTIAL LITERARY EDUCATION BASED ON INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Annotation

The article examines the theoretical and practical aspects of organizing differentiated literary education based on information and communication technologies (ICT) in Presidential and creative specialized schools. It analyzes the methodological functions of ICT, their application forms in the educational process, and their role in ensuring interactive and individualized learning approaches.

Key words: Information and communication technologies, differentiated education, Presidential schools, literary education, interactive approach.

ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА БАЗЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В статье раскрываются теоретические и практические аспекты организации дифференцированного литературного образования на основе информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в Президентских и творческих специализированных школах. Анализируются методические функции ИКТ, формы их применения в учебном процессе, а также их роль в обеспечении интерактивного и индивидуального подхода.

Ключевые слова: Информационно-коммуникационные технологии, дифференцированное обучение, Президентские школы, литературное образование, интерактивный подход.

DIFFERENTIAL ADABIY TA'LIMNI AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada Prezident va ijod-ixtisoslashgan maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida diferensial adabiy ta'limni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Unda AKTning metodik vazifalari, ularning ta'lim jarayonida qo'llanish shakllari, interfaol va individual yondashuvni ta'minlashdagi imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, diferensial ta'lim, Prezident maktablari, adabiy ta'lim, interfaol yondashuv.

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – bu ta'limiy jarayonda axborotni yaratish, qayta ishlash, uzatish va muloqotni ta'minlovchi raqamli vositalar va platformalar tizimidir. Zamonaviy pedagogikada AKT faqat texnik vosita emas, balki ta'limning mazmunini, uslubiy va metodik transformatsiyasini amalga oshiruvchi strategik omilga aylangan. Adabiy ta'limning o'z tabiati – hissiy-estetik qabul, ma'naviy tahlil, mulohazakorlik va individual munosabatga asoslangani sababli, AKT bu jarayonni yorqinlashtirish, vizuallashtirish, keng kontekstlarda tahlil qilish imkonini yaratadi. Asarning mazmunini faqat matn asosida tushunish o'rni, u bilan bog'liq videofilmlar, muallif intervyulari, qahramonlar timsolini tasvirllovchi illstratsiyalar, podkastlar va jonli muhokama platformalari orqali keng qamrovli idrok jarayoni tashkil etiladi.

Adabiy ta'limda AKT foydalanishning asosiy metodik vazifalari quyidagilardan iborat.

Ta'lim jarayonida ushbu vazifalardan har biri alohida holda emas, balki o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi lozim. Masalan, Bobur she'rlarini o'rganishda avvalo muallif haqidagi tarixiy ma'lumotlar multimediali shaklda beriladi; keyin o'quvchilar g'ugl hujjatda g'oyaviy tahlil yuritadi, so'ngra Jamboard platformasida qahramon timsollarini tasvirlaydi, axirida Google Forms orqali shaxsiy munosabatni ifoda etadi.

Bunday yondashuv nafaqat ma'lumotni o'zlashtirishni, balki interfaol, ko'pqirrali, muloqot asosidagi, shaxsiy tafakkurga suyang'an ta'lim muhitini shakllantiradi. Adabiy ta'limda matn – "tayyor bilim" emas, balki shaxsga ta'sir qiluvchi axboriy, ma'naviy va ta'rifiy jarayon hisoblanadi. AKT esa shu jarayonni ko'rinarli, anglashli, kerak paytda – kontekstli va shaxsiylashgan holda tashkil etishga xizmat qiladi.

Ijodiy va intellektual potentsiali yuqori bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda an'anaviy, bir xil uslubda olib boriladigan darslar, ko'p hollarda, ularning qobiliyatini cheklab qo'yadi. Prezident maktablarida aynan AKT vositasida tuzilgan adaptiv ta'lim muhiti o'quvchilarning bilim olish sur'ati, tafakkur uslubi, qiziqish yo'nalishi va e'tibor markaziga mos ravishda shakllantiriladi. Bu, o'z navbatida, ta'limdagi "bir xillik"ni bartaraf etib, har bir o'quvchiga mos individual reja asosida rivojlanish imkonini yaratadi.

AKT asosida diferensial muhit yaratish uchun birinchi navbatda elektron resurslar va platformalar tanlovi ahamiyat kasb etadi. Bu yerda o'quvchilar uchun har xil darajadagi, ko'p formatli va fanlararo bog'liqlikka ega bo'lgan materiallar zarur. Masalan, adabiy asarning elektron shakli (PDF, ePub), audiokitob varianti, videofilm shaklidagi adaptatsiyasi, muallif haqidagi infografika, qahramonlarni tahlil qiluvchi vizual

taqdimotlar — bularning barchasi bir mavzuni turli yondoshuvda o'zlashtirish imkonini beradi. Bunday muhitda o'qituvchi faoliyati ham o'zgarishga uchraydi. U axborot manbai emas, balki ta'lim muhitini tuzuvchi, kontent tuzilmasini muvozanatlashtiruvchi va shaxsiy rivojlanishni kuzatib boruvchi shaxsga aylanadi. Misol uchun, "Otabek" (A. Qodiriy) obrazini tahlil qilishda bir o'quvchi qahramonni shaxsiy kundalik yozish orqali ifodalasa, boshqasi Google Slides orqali vizual taymlayn tayyorlashi, yana bir o'quvchi videoblog orqali so'zlashi mumkin. AKT asosida differensial muhit yaratishda quyidagi pedagogik va metodik shartlar muhim:

- Faoliyat tanlovi va erkinlik: O'quvchi o'z qobiliyatiga mos uslubni tanlashda mustaqillikka ega bo'lishi kerak.

- Interfaol platforma: Ta'lim Google Classroom, Edmodo, Moodle kabi muvozanatli tizim orqali tashkil qilinishi lozim.

- Maqsadli refleksiya: AKT vositalari orqali refleksiya va shaxsiy munosabatni bildirish imkonini yaratiladi (Mentimeter, Wordwall, Google Forms). Muloqot asosidagi rivojlanish: Zoom, Teams, yoki Jamboard platformalaridagi jamoaviy faoliyat orqali shaxsiy fikr va ijtimoiy munosabat o'zaro ta'sirda rivojlanadi.

- Bilim monitoringi va individual tahlil: Elektron portfolio, refleksiya kundaligi, raqamli rubrikalar orqali natija emas, jarayon baholanadi.

1. Interaktiv muhokama va debat usullari. AKT vositasida tashkil etiladigan virtual muhokamalar (Zoom, Google Meet, Teams) adabiy matn yuzasidan o'quvchilarning mulohaza va bahslashuv qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, "O'tgan kunlar" romani yuzasidan "Otabek – taraqqiyot ramzimi yoki romantik qahramonmi?" mavzusida onlayn debat tashkil etish mumkin.

2. Jamoaviy tahlil – Google Docs va Jamboard platformalarida. Odatda adabiy matnlar bo'yicha tahlillar individual o'tkaziladi. Ammo AKT imkoniyatlari tahlilni jamoaviy va interfaol tarzda o'tkazishga imkon beradi. Google Docs yoki Jamboard'da o'quvchilar birgalikda: asarning mavzusini tezislar orqali belgilash; qahramonlar xususiyatlarini diagramma shaklida ko'rsatish; har bir bob yuzasidan ma'noiy xulosalar qilish mumkin. Bu metod har bir o'quvchini umumiy muhokamaga jalb qiladi, passiv o'quvchilarni ham faollashtiradi.

3. Audiovizual interpretatsiya usuli (video, podkast, kino). Adabiy asarlar kinofilm, videofragment, audiospektakl, podkast yordamida berilsa, ular o'quvchida ta'sirchanlik va tafakkurning yangicha jarayonini yuzaga keltiradi. Masalan:

“Sarob” yoki “Odina” kabi asarlarning ekranlashgan variantini ko'rib, matn bilan vizual obrazni qiyoslash;

Asar mavzusida audiopodkast tayyorlash (masalan, “Siz Boburni qanday tushunasiz?” mavzusida); Radiospektakl yaratish yoki mavjud audioyazuvni tahlil qilish.

Bu usullar orqali ma'naviy-madaniy tahlil ham amalga oshadi.

4. Tasviriy tahlil usullari (mind map, infographics, timeline). Canva, MindMeister, Coggle kabi platformalarda qahramonlarning ichki transformatsiyasi, syujet oqimi yoki g'oyaviy yechimni vizual shaklda chizmalar, sxemalar, jarayonlar orqali ifodalash mumkin. Masalan: “Oydinga yurgan odamlar” (Tog'ay Murod) qissasida voqealar rivojini xronologik timeline asosida jadvallash; “O'tkan kunlar” romanidagi (Abdulla Qodiriy) muhabbat, burch, milliy taraqqiyot g'oyalarini mind map shaklida tarqatish

5. Onlayn baholash va testlash usullari. Onlayn baholash – ma'lumotni tekshirish emas, balki o'quvchining fikrlash jarayonini tushunish vositasidir. Wordwall, Kahoot,

Quizizz, Google Forms kabi platformalarda quyidagi usullar joriy etiladi:

- Adabiy obrazlar asosida test savollari (tafsir va tanlov)

- Kontekstual savollar: “Muxtasar fikr qiling: nima uchun Qodiriy roman finalini shunday yakunlagan?”

- Refleksiya savollari: “Asar sizni shaxsan qanday o'yga soldi?” Bu testlar differensial va shaxsiylashtirilgan bilim monitoringiga xizmat qiladi.

6. Podkast va videoblog asosida ijodiy fikr ifodasi. O'quvchi o'zi o'qib chiqqan asar yuzasidan fikr va taassurotini ovozi yoki videoblog tarzida yozib, Google Drive, YouTube, Anchor.fm yoki Telegram orqali taqdim etadi. Bu shakl:

- Nutqiy ijodni rivojlantiradi

- O'z fikrini erkin ifoda qilish qobiliyatini oshiradi

- Axborotni qayta ishlash va qayta yaratish ko'nikmasini shakllantiradi

Masalan: “Men uchun Otabek” yoki “O'zbek adabiyotida ona timsoli” mavzusidagi 3-5 daqiqalik podkast topshiriq sifatida berilishi mumkin.

7. Fanlararo vizual-kreativ usullar (adabiyot + san'at + tarix). Prezident maktablarida adabiy tahlil tarix, san'at, geografiya bilan bog'liq holda amalga oshirilishi mumkin. Masalan:

- “Shum bola” hikoyasidagi muhitni jismoniy joy sifatida Google Earth'da toppish

- “Farhod va Shirin” dostonidagi muhabbat obrazini rassomlikda qanday ifoda etilganini tahlil qilish

- QR-kod orqali qo'shimcha ma'lumotga o'tish, onlayn muzey turlaridan foydalanish

Bu usullar adabiyotni keng madaniy kontekstda tushunishga yo'l ochadi. Prezident maktablarida ushbu usullar o'quvchi shaxsini markazga qo'ygan, muloqotga asoslangan, interfaol va differensial ta'lim muhitini yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda adabiy matn faqat ko'chirma bilim obyekti emas, balki faol intellektual munosabat maydoniga aylanadi. AKT yordamida badiiy obrazlar shaxsiy idrok orqali qayta tiklanadi, voqealar vizuallashadi, qahramonlarga nisbatan emotsional munosabat paydo bo'ladi, tanqidiy mulohaza shakllanadi va o'quvchi shaxsiy interpretator maqomini egallaydi. Quyida adabiy tahlilni chuqurlashtiruvchi va AKT bilan boyituvchi asosiy interaktiv usullar yoritiladi. Birinchidan, adabiy asar asosida ssenariylar va dramalashtirishlar yaratish shakli o'quvchilarda murakkab g'oyalarni ifodalash, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar dinamikasini anglash va ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Masalan, “O'tkan kunlar” romanidan olingan asosiy voqealar dramaturgik tuzilmaga solinadi: har bir sahna uchun obrazlar, konflikt nuqtalari va mualliflik pozitsiyasi belgilanadi. Bu jarayonda Google Docs, Storyboard That kabi platformalarda o'quvchilar jamoaviy tahrir va tahlil ishlarini amalga oshiradilar. Ikkinchidan, adabiy qahramonlarni shaxsiy interpretatsiya asosida ifoda etish, ya'ni ularning o'rnida bo'lib fikr bildirish, nafaqat hissiy empatiyani, balki axloqiy qarashlarni ham tarbiyalaydi. Masalan, Flipgrid platformasida o'quvchi “Men – Farhodman. Nega tog'ni qazdim?” mavzusida videomulohaza yozib taqdim etadi. Uchinchidan, adabiy tahlil jarayonida o'quvchilarni faol muloqotga jalb qilish maqsadida interaktiv muhokama maydonlari, ya'ni “fikrlash devorlari” tashkil etiladi. Padlet, Miro yoki Jamboard kabi platformalarda “Asardagi asosiy axloqiy muammo nima?”, “Muallif qaysi pozitsiyada?”, “Sizning munosabatingiz qanday?” kabi savollar berilib, o'quvchilar guruhlar orqali javob beradi, o'z fikrini asoslaydi, taqqoslaydi va bahs qiladi. To'rtinchidan, adabiy tahlilni vizual modellar orqali amalga oshirish, ya'ni infografika, mayndmep, diagramma va qiyosiy grafiklar tayyorlash – matnning ichki aloqalari va mafkuraviy

tuzilmasini ochib berishda muhim vazifa o'taydi. Beshinchidan, tahlilni chuqurlashtirishning samarali usullaridan biri – savol yaratish orqali fikrni o'stirishdir. Google Forms yoki Edpuzzle kabi platformalarda adabiy matn yuzasidan o'quvchining o'zi tomonidan savollar tuzilib, turli javob variantlari taqdim etiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) nafaqat ta'lim sohasini raqamlashtirdi, balki uning mohiyati, maqsadi va metodlarini tubdan o'zgartirdi. Xususan, adabiy ta'lim sohasida AKT vositalarining keng tatbiq etilishi faqat texnik qulaylik yaratibgina qolmay, balki o'quv jarayonini interfaol, shaxsiylashtirish va tahlilga yo'naltirilgan muhitga aylantirishga xizmat qilmoqda. Bir tomondan, AKT adabiy ta'limni vizuallashtirish, mulohazalashtirish, mazmuni chuqurroq anglash uchun qulay muhit yaratadi. Ikkinchi tomondan, texnologiyaga bo'lgan ortiqcha ishonch yoki noto'g'ri qo'llash natijasida ta'lim sifatining formallashuvi, mulohazaning yuzaklashuvi, o'quvchining intellektual inertligi yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, AKT imkoniyatlari bilan birga uning cheklovlarini ham chuqur tahlil qilish zarur.

Akt imkoniyatlari. Avvalo, AKT vositalari orqali differensiallashgan ta'limni tashkil etish imkoni vujudga keladi. Har bir o'quvchi o'z individual darajasi, qiziqishi va kognitiv sur'atiga mos resurslar bilan ta'minlanishi mumkin. Ikkinchidan, AKT badiiy obraz va g'oyalarni vizuallashtirish imkonini yaratadi. Adabiy asardagi murakkab fikrlar, uyushtiruvchi g'oyalar va syujet rivojini Google Earth, StoryMap, Canva yordamida infografik va interaktiv shaklda namoyon qilish, vizual idrokni mustahkamlaydi. Bunday vizuallashtirish adabiy tafakkurni ratsional va estetik tushunish orqali boyitadi. Uchinchidan, AKT interfaol va muloqotga asoslangan muhit yaratadi. Masalan, Padlet, Miro, Google Docs kabi platformalarda jamoaviy tahlil, bahs, so'rovlar, onlayn mulohazalar, rolli o'yinlar tashkil etiladi. Akt cheklovlari. Biroq AKT vositalarining shubhasiz afzalliklari bilan birga, qator pedagogik, texnologik va metodik cheklovlar mavjud. Birinchi navbatda, kontent sifatining nazoratsizligi muammosini tilga olish zarur. Ikkinchidan, texnologiyaviy tengsizlik – ayrim o'quvchilarda planshet, noutbuk yoki barqaror internet yetishmasligi, hatto Prezident maktablari sharoitida ham, differensial ta'limni barqaror tashkil etishga to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu holat ta'limda tenglik va imkoniyatlar adolatini buzishi ehtimoldan xoli emas. Uchinchidan, o'qituvchining AKT savodxonligi darajasi ta'limning metodik muvaffaqiyatini belgilaydi. Agar o'qituvchi texnologiyani maqsad emas, balki vosita sifatida anglamasa, resurslar ko'pligi o'rniga chalkashlik, yuzakilik, formal baholash yuzaga keladi. To'rtinchidan, ta'lim jarayonida "sho'ng'ib ketish" muammosi kuzatiladi. Odatda ekran asosidagi tez va jozibali ma'lumotlar bilan ishlagan o'quvchi matn bilan chuqur ishlashga bo'lgan qiziqishni yo'qotishi mumkin. Bu esa adabiy tahlilning chuqurlik, mulohaza, hissiy halollik kabi ko'nikmalarini susaytiradi.

Zamonaviy adabiy ta'limni shaxsiylashtirish, interfaol va mazmunan chuqurlashtirish shaklda tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining maqsadli va ilmiy asoslangan qo'llanilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Prezident, ijod-ixtisoslashgan maktablarda o'quv muhiti yuqori standartlar asosida tashkil etiladi, shuning uchun ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish tasodifiy emas, balki ilmiy-nazariy va metodik asoslangan bo'lishi talab etiladi. Avvalo, adabiy ta'limda AKT vositalarini qo'llash o'quv materialini texnik jihatdan taqdim etish emas, balki tahlil, anglash, mulohaza va shaxsiy interpretatsiyani tashkil etish vositasi sifatida qaralishi kerak. Birinchi tavsiya – har bir adabiy asarni raqamli tahlil qilishda platformaviy maqsad aniqligi ta'minlanishi lozim. Ya'ni, Padlet – fikrlash devori uchun, Canva – infografik tahlil uchun, Flipgrid – shaxsiy munosabat ifoda etish uchun, Edpuzzle – videotahlil uchun tanlanishi kerak. Platformaning shakli emas, uning tahliliy vazifaga xizmat qilishi birinchi o'ringa chiqishi zarur. Ikkinchi tavsiya – adabiy bilimning differensiallashuvini ta'minlovchi raqamli kontentlar bazasini shakllantirish. Buning uchun o'quvchilar darajasi, qiziqishi, o'qish sur'ati va uslubiy ehtiyojlariga mos turli formatdagi (audio, infografika, videoboshqaruvli, qo'lyozma) materiallar yaratilishi lozim. Uchinchi tavsiya – adabiy ta'limda AKT qo'llayotgan o'qituvchilar uchun tematik metodik gaydlar (yo'riqnoma, cheklist, vizual ssenariylar) tuzish va ularni amaliy seminarlar orqali yetkazish. Masalan, "Otabek obrazini Padletda tahlil qilish algoritmi" yoki "Farhod obrazini Canva infografikasida ifodalash qadamlari" kabi mukammal ssenariylar ustida ishlash kerak. To'rtinchi tavsiya – refleksiv va baholash elementlarini raqamlashtirish. Google Forms, Mentimeter, Vocaroo kabi platformalar orqali har bir tahlil faoliyatidan so'ng o'quvchi o'zida qanday mulohaza va taassurot yuzaga kelganini yozadi, ovozladi yoki so'rov shaklida qayta taqdim etadi. Bu natijalar o'qituvchiga har bir o'quvchining adabiy tafakkur yuritish tendensiyasini baholash imkonini beradi. Beshinchi tavsiya – psixologik-didaktik balansni saqlash. AKT orqali tahlil jarayoni jozibali va kreativ bo'lsin, lekin asosiy maqsad – ma'naviy-estetik tushunish, tafakkur va anglash ekanligini unutmaslik kerak. Oltinchi tavsiya – adabiy ta'limda AKT faoliyatlarini shaxsiy portfolio tizimiga joylashtirish. Har bir o'quvchi o'z audio, infografik, esse, tahlil skrinshotlari, video yozishmalarini Google Drive yoki Mahara platformasida jamlab borishi mumkin. Bu – shaxsiy rivojlanishni monitoring qilish uchun innovatsion usuldir.

AKT vositalari adabiy ta'limni chuqur va interfaol xarakterga ega jarayonga aylantiradi. Prezident va ijod-ixtisoslashgan maktablarda ushbu texnologiyalarni ilmiy-metodik asosda, maqsadga muvofiq, differensial yondashuv orqali tatbiq etish – yangi avlod intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir texnologiya vosita sifatida, har bir talaba esa shaxs sifatida qaralishi kerak.

REFERENCES

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three generations of distance education pedagogy. *International Review of Research in Open and Distance Learning*, 12(3), 80–97.
2. Bates, T. (2015). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for designing teaching and learning*. Tony Bates Associates Ltd.
3. Prensky, M. (2010). *Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning*. Corwin Press.
4. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3–10.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ–6108-сонли фармони. (2020). Президент мактабларини ташкил этиш тўғрисида.
6. Хамидов, Н. (2022). Инновацион технологиялар ва адабий таълимда рақамли муҳит. Тошкент: Истикбол нашриёти.
7. Шерматова, У. (2023). Адабий таълимда АКТдан фойдаланишнинг методик асослари Педагогика ва инновациялар журналі, 3(5), 45–52.

8. Muydinova A. U. The tradition of movashachism in the tashkent literary environment. Mental enlightenment scientific – methodological journal// https://www.researchgate.net/publication/395547328_The_tradition_of_movashachism_in_the_Tashkent_literary_environment?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6Il9kaXJlY3QiLCJwYWdlIjoic2VhcmNoIiwicG9zaXRpb24iOiJwYWdlSGVhZGVyIn19
9. Холикова Н. Миллий уйғониш даври ўзбек шеърятининг поэтик хусусиятлари / ЎзМУ хабарлари. – Toshkent, 2020. – №1/6/1. – Б. 234-236.
10. Usmanova Z.I. Tarixiy voqelik tasvirida fakt va talqin muammosi (Xurshid Davron lirikasi misolida)/O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2024, [1/4], 370-372-betlar.
11. Achilova, E. S. (2025). Improving the methodology of teaching literature on the basis of an individual-oriented approach . Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 6(04), 542–551. <https://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/article/view/963>
12. Davlatova, A. R. (2025). Principles of analyzing literature and art works based on postcolonial method (in the example of uzbek jadid literature) . Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 6(04), 108–118. <https://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/article/view/917>
13. Arzikulova, S. (2025). The issue of national pride in Hamza’s drama "the rich and the servant". Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 6(04), 79–86. <https://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/article/view/914>
14. Murodova R. Qo'lyozmalarni o'rganishda axborot texnologiyalarining o'rni. Academic research in educational sciences 4 (CSPU Conference 1) , 54-56, 2023https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=murodova+ruxsora&oq=#d=gs_qabs&t=1758184057506&u=%23p%3D8vtDzy6rmgYJ